XALQ DEPUTATLARI ROMITAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-noyabr VII-17-137-2-40-K/25 Romitan tumani

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan, tumandagi 18 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi 31 ta geografik obyekt (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) ni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi. 31 ta obyekt (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) ga taklif etilgan nomdan 31 tasi O‘zbekiston Respublaikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, davlat ekspertizasidan o‘tkazilib, ekspert komissiyasining xulosasi olindi hamda 9-oktabr 2025-yil 05-19-17621-sonli ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlandi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topildi.

Yuqorida bayon etilganlarga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi ushbu sessiya kun tartibiga kiritilgan masala bo‘yicha kiritilgan takliflarni ko‘rib chiqib, ma’qullab berishini so‘rayman.

Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi G.G‘iyosovaning hisobotini atroflicha muhokama qilib, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunning 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Romitan tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geofrafik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 9-oktabrdagi 05-19-17621-sonli Ekspertiza xulosasi hamda tuman hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi G.Giyasovaning hisoboti ma′lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari 1-ilovaga muvofiq ma′qullansin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Z.Davronov)ga:

- tuman mahallalaridagi nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalarga aholini ro‘yxatga qo‘yish va tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Romitan tumani filiali (B.Raximov), tuman stasistika bo‘limi (F.Aslonov)ga:

- tumanda yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik obyektlarni tuman xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha tuman stastistika ma′lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (I.Sattorov), “Romitannoma” tuman gazetasi tahririyati (M.Atoyeva)ga tuman hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi G.Giyasova bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni tuman mahalliy ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Salomov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e′tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **MUSOYEVA SHOHISTA AXATOVNA**

Xalq deputatlari Romitan tumani Kengashining
2025-yil 27-noyabrdagi
VII-17-137-2-40-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Romitan tumanida qayta xatlov asosida nomsiz deb topilgan ko‘chalarga yangi nom takliflari

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining izohi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Tor ko'cha	Iftixor mahallasi	Nomsiz 4-tor	Bunyodkor 4-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Tor ko'cha	Sho'rcha mahallasi	Nomsiz 4-tor	Charog‘on 4-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Tor ko'cha	Chandir mahallasi	Nomsiz 6-tor	Hasanobod 6-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Tor ko'cha	Chandir mahallasi	Nomsiz 7-tor	Hasanobod 7-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Ko'cha	Marziya mahallasi	Nomsiz	Ulug‘vor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Ko'cha	Marziya mahallasi	Nomsiz	Sadoqat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Tor ko'cha	Chandir mahallasi	Nomsiz 2-tor	Yangikent 2-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Tor ko'cha	Chandir mahallasi	Nomsiz 3-tor	Yangikent 3-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Tor ko'cha	Chandir mahallasi	Nomsiz 4-tor	Yangikent 4-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Tor ko'cha	Chandir mahallasi	Nomsiz 5-tor	Yangikent 5-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Ko'cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nomsiz 1	Mingyog‘och	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Tor ko'cha	Gazli mahallasi	Nomsiz 2/ tor	Qardoshlik	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri	Qonun hujjatlari

					ko‘rsatilgan	talablariga muvofiq
13.	Ko'cha	Gazli mahallasi	Nomsiz 2	Qardoshlik	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Ko'cha	Qahramon mahallasi	Nomsiz 033	Havas	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Tor ko'cha	Qahramon mahallasi	Nomsiz 033 tor	Havas tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16.	Berk ko'cha	Qoqishtuvon mahallasi	Nomsiz 2-berk	Zafaron-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17.	Berk ko'cha	Qoqishtuvon mahallasi	Nomsiz 3-berk	Zafaron-3	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18.	Tor ko'cha	Qoqishtuvon mahallasi	Nomsiz 2-tor	Olmazor-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19.	Tor ko'cha	Qoqishtuvon mahallasi	Nomsiz 9-tor	Qoqishtuvon 9-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
20.	Berk ko'cha	O'ba mahallasi	Nomsiz 1-berk	Paxtakor 1-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
21.	Tor ko'cha	O'ba mahallasi	Nomsiz tor	Tarovat tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
22.	Ko'cha	Hofizrabot, Hazortut, Qumrabot, Bog‘isayidon	Nomsiz 2-ko’cha	Dilnur	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
23.	Tor ko'cha	Hazortut mahallasi	Nomsiz 2-tor	Turkiston 2- tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
24.	Berk ko'cha	Azizon mahallasi	Nomsiz berk	Qo‘rg‘onchabog‘ berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
25.	Tor ko'cha	Ibn Sino mahallasi	Nomsiz 2-tor	G‘afur G‘ulom-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
26.	Berk ko'cha	Ibn Sino mahallasi	Nomsiz 4-berk	Shahriston-4	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
27.	Ko'cha	Mug‘oncha, G‘azberon, Xosa, Chelong‘u, Chandir	Nomsiz 1-ko‘cha	Qo‘shqanot	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
28.	Ko'cha	Xo‘jaubbon, Hofizrabot	Nomsiz 4-ko’cha	Ilhombaxsh	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

29.	Ko'cha	Qoqishtuvon, Poyjo‘y	Nomsiz 4-ko’cha	Billur	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
30.	Ko'cha	Mirishkor mahallasi	Nomsiz 5-ko’cha	G‘alaba	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
31.	Tor ko'cha	Poyjo‘y mahallasi	Nomsiz 4-tor	Quyi Poyjo‘y 4-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq